

O‘ZBEKISTON PORTRET JANRIDAGI OBRAZLI-STILISTIK O‘ZIGA XOSLIKLAR

Umida Axmedxodjayeva

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

tayanch doktoranti

umida-fazilova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola XX asrning II yarmida O‘zbekiston portret janrining rivojlanish davri taraqqiyotida hukm surgan badiiy tendentsiyalar, unda shaxs kontsepsiyasini tarixiy o‘zgarishlar kesimidagi transformatsiyasining obrazli-stilistik o‘ziga xosliklari maqolaning qisqacha mazmunini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: portret janri, portretchi rassom, natura, dekorativizm, dinamik mazoklar, plener, kartina syujeti, janrlar sintezi, kompozitsiya, drapirovka.

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье обобщены художественные тенденции, господствовавшие в развитии портретного жанра Узбекистана во второй половине XX века, и образно-стилистические особенности трансформации понятия личности в контексте исторических изменений.

Ключевые слова: портретный жанр, художник-портретист, натура, декоративизм, динамичный мазок, пленер, сюжет картины, жанровый синтез, композиция, драпировка.

SUMMARY

This scientific article summarizes the artistic trends that dominated the development of the portrait genre of Uzbekistan in the second half of the 20th century, and the figurative and stylistic features of the transformation of the concept of personality in the context of historical changes.

Key words: portrait genre, portrait artist, nature, decorativeism, dynamic brushstroke, plein air, painting plot, genre synthesis, composition, drapery.

XX asrning II yarmida O‘zbekiston rangtasvirida milliy maktablarni shakllanishiga Moskva va Leningrad Oliy ta’lim badiiy dargohlarida ta’lim olgan professional rassomlar avlodini yetishib chiqishi sabab bo‘lgan. R.Ahmedov, N.Qo‘ziboyev, M.Saidov, T.Oganesov rassomlar ijodida realizmning badiiy va ifodali vositalari tizimi yetakchi o‘rinni egalladi. Uning asosida voqelikni plastik jihatdan

yanada ifodali, chuqurroq aks ettirish boshlandi. O'tgan yillardagi tashqi takomillashtirish va "kichik mavzular" ni rad etib, bu rassomlar syujet va tematik seriyalar doirasini kengaytirdilar, ularda mintaqaga xos bo'lgan, o'z xalqining mentaliteti va an'anaviy g'oyalari yaqin mavzularning birlashuvini qayd etish mumkin (R.Ahmedov "Onalik o'ylari"). O'zbekistonda portret janri pirovardida, asosan, "plener"da chizilgan portret sifatida rivojlanib, o'ziga tanish tabiiy muhitda milliy xarakter xususiyatlarini yanada kengroq ochib berishga xizmat qildi (N.Kashina, R.Ahmedov asarlari misolida). Shu bilan birga, o'zbek rassomlarining janr sahnalari ko'pincha portret kompozitsiyalariga o'xshab ko'rinadi va portret janri elementlari bilan boyitiladi. Syujetlar xilma-xil bo'lib, ayollarning oddiy mashg'ulotlari, kolxozchilarning dam olish motivlari bilan bog'liq bo'lgan janrli kartina odatda kamerali tabiat manzarasida to'liqroq namoyon bo'ladi. Tabiat go'zalligini, tevarakatdagi olam uyg'unligini anglash O'zbekiston rassomlarining yangi avlodi uchun impressionizmning o'ziga xos tarkibiy qismlarini o'zida mujassam etgan P.Ben'kov an'analari bilan bog'liq holda juda organik edi (M.Saidov, R.Ahmedov, N.Qo'ziboyev, T. Oganegov). Ularning ta'sirida o'zbek rangtasviridagi portret, manzara va maishiy janrlarni sinteziga aylandi. Bu davrda aniqlangan xususiyatlar kelajakda saqlanib qolgan. Rangtasvir maktablarining har biriga xos xususiyatlar janrlar uyg'unligi tabiatida, janrlararo shakllarning shakllanishida, taraqqiyotning milliy xususiyatlarini aks ettirgan holda namoyon bo'ldi. ¹Respublikada dastgohli rangtasvir stilistikasi o'zgarib, o'zini asosiy yo'nalishlarini saqlab qoldi. Biroq bu yo'nalishlar doirasida rassomlarning ijodiy o'ziga xosligi va voqelikka nisbatan sezgir munosabatining yanada ziyrak namoyon bo'lgan. Bu yo'nalishlar bir-biri bilan, ba'zan bir rassomning (N.Kashina, R.Ahmedov, A.Abdullayev va boshqalar) ijodi doirasida faol qatnashadi. Bir qator badiiy-hikoyanavist yo'nalishdagi rassomlar ijodida shaklning asosliligi, ba'zan O'zbekiston "palitrasi"ga (Kurzin) daxlsizlik hukm surayotgan bo'lsa-da, ularning ba'zilari o'z kartinalarini majoziy va rang-barang boyitishga intilishgan. Bu esa ularni "Ben'kov" maktabiga yaqinlashtirardi. Badiiy fikrlashning naturalistik-ifodaviy usuli va rus va sovet rangtasvir an'analari murojaat qilish Leningradda tahsil olgan bir qator yosh rassomlar (V.Jmakin, N.Qo'ziboyev, T.Oganegov), shuningdek, V.Fadeev va A.Viner uchun xarakterli edi. Ularning barcha farqlariga qaramay, ularni O'zbekistonning o'ziga xos milliy voqeligini syujet va tip doirasida idrok etish, mavzuning hikoyaviy talqini, shuningdek, keng tematik diapazon birlashtiradi. Ularning syujetli kompozitsiyalarida kengaytirilgan syujet tamoyili amalga oshirilib, mizan-sahnaga asoslangan aniq vaziyat, harakat motivatsiyasi va

¹ Ахмедова Н.Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. – Ташкент: 2004. – 205 с.

tashqi harakatlar orqali personajlarning o‘zaro munosabati - mimik-ishoralar, yuz plastikasi yordamida ochib beriladi. Bu asarlar (V.Jmakin - "Paranjasiz ayol", 1957; N.Qo‘ziboev - "Qidiruvchilar", 1956; T.Oganesov - "Paxtakorlar", 1957; A.Viner - "Begavat metallurgiya zavodida" ("Po‘latdan ishlovchilar", 1959) hayotiy jarayonni emas, balki ma‘lum bir vaziyatni tasvirleydi, bu ularni nisbiy bo‘lsa ham, majoziy ekspressivlik va hissiy-emotsionallikdan mahrum qilmaydi. Bu rassomlar asosiy e‘tiborini portret janriga qaratishadi.¹ San‘atshunos L.Jadova "Sovremennaya jivopis' Uzbekistana" kitobida o‘zbek milliy portret janrini shakllanish davrlarini, unda ijod qilgan portretchi rassomlar Sh.Xasanova, A.Abdullayev, Z.Inogamov, R.Ahmedov, V.Jmakin, T.Oganesov yaratgan asarlarni chuqur tahlil qilgan. O‘zbek xalqi urush yillarida frontda qahramonlik mo‘jizalarini ko‘rsatib, tinch hayotga ma‘nan yetuk va boyib kirdi. Tarixning ko‘plab yorqin sahifalari o‘zbek xalqining urush yillarida ochilgan eng yaxshi fazilatlari, o‘z xalqiga, o‘z Vataniga sadoqati, matonat va jasorati, insonparvarligi kabi oliy insoniy xislatlari namoyon bo‘lgan. Respublikada 1952-1954-yillardagi ko‘rgazmalarida namoyishga qo‘yilgan portretlarda yuzaki naturalizm tendentsiyasi kuzatilgan.² Urushdan keyingi yillardagi tinch, bunyodkorlik ishlari sovet odamining ijodiy qobiliyatlarini, uning qurilishdan, sotsialistik jamiyatning kuch-quvvatidan ilhomlangan mehnat faoliyatini yanada yorqinroq ochib berdi. Bularning barchasi rassomlarning diqqatini zamondosh obrazini yaratishga davat etdi. Rassomlardan insonning ma‘naviy boyligi va go‘zalligini chuqur ochib beruvchi portretlar kutilgan edi. O‘zbekiston rangtasvirchilari bunday muammoni hal qilishga tayyor edilar. Milliy rangtasvirda 30-yillarda asos solingan shartli-dekorativ tendentsiyalar, 70-80-yillarda G‘arb va Sharq sintezi muammolari kontekstida namoyon bo‘ldi. O‘zbekiston portret janrining 1960-1980 yillar davridagi taraqqiyotida ko‘p o‘zgarishlar sodir bo‘lib, endilikda rassom asarlardagi bosh obraz bo‘lmish zamondosh-ziyoli inson va yangi ma‘naviy qiyofadagi shaxs tasvirini aks ettirish bosh g‘oyaga aylandi. Bunday odam timsoli har kun, har soatda idealga yaqinlashtirilgan holda shakllanib, unda ma‘naviy boyluk, ahloqiy soflik, jismoniy mukammallik kabi fazilatlar mujassamlangan. Mustaqillik davrida yaratilgan portretlarda shaxs kontseptsiyasi butunlay o‘zgardi. Endilikda eski tuzum g‘oyalarini aks ettiruvchi soxta ideallashtirilgan inson obrazi emas, balki haqqoniy, real hayotda yashaydigan, mustaqil, o‘zida sharqona liriklikni, chuqur falsafiy qarashlarni, qolaversa nihoyatda tabiiy va samimiy shaxs siymosi portretlarda gavdalanadi. Shu jumladan portretnavis rassom ayollar soni tobora ko‘payib, ularning asarlari yildan-yilga kelib, ortib bormoqda.

¹ Лаковская В.Л. Послевоенная станковая жизнь Узбекистана. – Фан, 1991. –115с.

² Жадова Л. Современная живопись Узбекистана. – Ташкент, Государственное издательство художественной литературы УзССР. 1962. – 112 с.

Mustaqillik yillarida ijod erkinligi san'atda izlanishlar turli uslub va yo'nalishlarning rivojlanishiga olib keldi. Milliy mavzu va tarixga e'tiborning ortishi tarixiy janrning ajralmas qismi bo'lgan tarixiy portretlarning rivojiga katta turtki berdi. Istiqlol yillarida Javlon Umarbekov, Aziza Mamatova, Bahodir Jalolov, Akmal Ikromjonov, Rustam Xudoyberganov, G'ofur Qodirov, Imyar Mansurov, Sobir Rahmetov, Muhammad Nuriddinov, Chori Bekmirov, Muhammadiyor Toshmurodov, Orif Muinov, Erkin Jo'raev, R.Rizomammedov, Zuhridin Islamshikov, Tohir Karimov, Erkin Aralov, Zebuniso Sharipova, Rahmon Shodiev, Bobur Ismoilov va boshqa rassomlar yaratgan portretlarda shu san'atning yangi qirralarini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахмедова Н.Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. – Ташкент: 2004. – 205 с.
2. Лаковская В.Л. Послевоенная станковая жизнь Узбекистана. – Фан, 1991. –115.
3. Жадова Л. Современная живопись Узбекистана. – Ташкент, Государственное издательство художественной литературы УзССР. 1962. – 112 с.